

№458, 11-yanvar, 2022 y.

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2022

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 10-yanvar holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	307 804 978	(+ 1 867 023)
Sog'ayganlar soni	-	259 523 295	(+ 560 161)
Vafot etganlar soni	-	5 505 935	(+ 3 488)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	61 263 030	(+ 308 616)
	Hindiston	-	35 708 442	(+ 180 438)
	Braziliya	-	22 523 907	(+ 24 382)
	Buyuk Britaniya	-	14 475 192	(+ 141 472)
	Fransiya	-	12 111 218	(+ 296 097)
	Rossiya	-	10 650 849	(+ 16 246)
	Turkiya	-	9 978 452	(+ 61 727)
	Germaniya	-	7 531 630	(+ 30 812)
	Italiya	-	7 436 939	(+ 155 659)
	O'zbekiston	-	200 730	(+ 389)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



ZF-UZ-VAC2001 vaksinasining kuchaytirilgan dozasi "Omicron"dan 100% himoya qiladi



Joriy yilning 7-yanvar kuni Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilg'or texnologiyalar markazi (ITM) laboratoriyasida "Omicron" shtammi aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi hududiga Dubaydan kelgan xorij fuqarosida koronavirusning yangi shtammi "Omicron" aniqlandi. Respublika maxsus komissiyasining yig'ilishida mazkur

holat, shuningdek, "Omicron" tarqalishiga qarshi chora-tadbirlar muhokama qilindi [2].

Voqeani sharhlar ekan, Innovatsion rivojlanish vazir o'rinbosari Shahlo Turdiqulova: "Omicron"ning dunyo bo'ylab tez tarqalishini inobatga olsak, uning O'zbekistonda paydo bo'lishi vaqt masalasi edi" deb aytdi. Ilg'or texnologiyalar markazi rahbari sifatida ZF-UZ-VAC2001 sinovlarida va virusli mutatsiyalarni o'rganishda faol ishtirok



etarkanman, mamlakatimizdagi eng ommabop O'zbekiston-Xitoy vaksinasi ustida olib borilgan tadqiqotlar yangi shtamm bo'yicha yaxshi natijalarni ko'rsatayotganini aytishim mumkin. Vaksinaning kuchaytirilgan — buster dozasi "Omicron" dan deyarli 100% himoya qiladi. Xitoylik hamkasblarimiz ham buni tasdiqladilar.

Maxsus komissiya yig'ilishida aholini, shu jumladan ZF-UZ-VAC2001 ning kuchaytirilgan dozalari bilan emlashni zudlik bilan tezlashtirish masalasi ham muhokama qilindi.

Eslatib o'tamiz, avvalroq Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti yuqori mutatsiyaga uchragan variant birinchi marta noyabr oyida kashf etilganidan beri u tez tarqalib, kamida 128 ta davlatda aniqlangani, ko'plab mamlakatlar va deyarli ikki yildan keyin o'z iqtisodlari va hayotini tiklashga intilayotgan odamlar uchun dilemmalarni keltirib chiqarganini ma'lum qilgan edi. Biroq, holatlar soni tarixiy rekord darajaga yetgan bo'lsada, kasalxonaga yotqizish va o'lim ko'rsatkichlari ko'pincha pandemiyaning boshqa bosqichlariga qaraganda pastroqdir [3].

O'zbekistonda "Omicron" shtammi aniqlangani sababli ehtiyot choralari kuchaytiriladi

O'zbekistonda koronavirusning "Omicron" shtammi aniqlangani munosabati bilan mamlakatda xavfsizlik choralari kuchaytiriladi, deb xabar qildi Sog'liqni saqlash vazirligi. Respublika maxsus komissiyasining navbatdagi yig'ilishida mamlakatimizda koronavirus infeksiyasi bilan kasallanish darajasi oshib borayotgani, ushbu kasallikka qarshi zarur choralarini ko'rishni davom ettirish zarurligi ta'kidlandi [4].



Yig'ilishda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni qat'iy davom ettirish masalasi har tomonlama muhokama qilindi. Jumladan, respublika maxsus komissiyasi qarori bilan jamoat joylarida niqob taqish, ijtimoiy masofaga rioya qilish, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya etilishi ustidan nazorat kuchaytirildi.

Bunda, barcha tashkilot, korxonalar va muassasalarda, yirik savdo majmualari, supermarketlar, ko'ngilochar muassasalarning kirish qismida niqobda bo'lish, ijtimoiy masofani saqlash, tana haroratini o'lchash amaliyotiga qat'iy rioya etilishi ta'minlanadi. Aholini to'liq emlash va buster doza bilan emlash ishlari jadallashtiriladi.



Vazirlik va idora rahbarlari, tashkiliy shaklidan qat'iy nazar, barcha tashkilotlarda ishchilarning emlangandan so'ng ish joylariga kiritishga ruxsat beriladi. Mazkur tartibni buzgan tashkilot rahbarlariga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qat'iy chora ko'riladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida ta'til davomida koronavirus

infeksiyasiga qarshi to'liq emlash choralari ko'riladi. Ushbu tadbirlarga OTM rahbarlari shaxsan mas'ul etib belgilanadi. Shuningdek, Respublika maxsus komissiyasining qarori bilan 2022-yil 15-yanvardan boshlab quyidagi tartib joriy qilinmoqda. Xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyuruvchilar kelishidan kamida 48 soat oldin topshirilgan koronavirus infeksiyasiga PZR test natijasi bo'yicha manfiy ko'rsatkichli ma'lumotga ega bo'lishlari shart [5].

O'zbekistonga Moderna vaksinasining novbatdagi partiyasi olib kelindi

O'zbekistonga COVAX dasturi asosida 500 400 doza miqdorida Moderna koronavirus vaksinasi olib kelindi. Vakcina 10-yanvar kuni Toshkentga maxsus reys orqali yetkazildi, deya xabar beradi Sog'liqni saqlash vazirligi [6]. Eslatib o'tamiz, O'zbekistonga yetkazilgan vaksinalarning umumiy soni 49 536 768 dozani tashkil etmoqda. Ulardan:

- 37 789 938 dozasi ZF-UZ-VAC2001;
- 3 500 460 dozasi Moderna;
- 2 404 480 dozasi AstraZeneca;
- 2 316 600 dozasi Pfizer/BioNTech;
- 1 976 000 dozasi Sinovac;
- 1 341 790 dozasi "Sputnik V";
- 207 500 dozasi Sputnik Light vaksinasidir.

Shundan qariyb 40 million dozasi emlash jarayonlarida qo'llanilgan [7].



O'zbekistonda o'tgan sutka davomida yangi COVID-19 infeksiyasining 390 holatlari qayd etildi

9-yanvar kuni O'zbekistonda COVID-19 infeksiyasining 389 ta yangi holati qayd etildi, shundan 193 tasi Toshkent shahrida. Pandemiya boshlangandan beri koronavirus bilan kasallanganlarning umumiy soni 200 730 kishini tashkil etdi [8].

9-yanvar holatiga ko'ra, respublikada 197 182 nafar (98 foiz) koronavirus infeksiyasidan to'liq sog'aygan. Oxirgi kun ichida uch kishi halok bo'ldi. Koronavirusdan vafot etgan bemorlarning umumiy soni 1497 nafarga yetdi [9].



Avstraliya 5-11 yoshli bolalarni COVID-19 ga qarshi Pfizer vaksinasi bilan emlashni boshladi

O'quv yili boshlanishidan avval Avstraliyada 3 million vakcina tarqatiladi, shunda COVID-19 vaksinasini olish huquqiga ega bo'lgan 2,3 million bola birinchi dozani qabul qilishadi [10]. Bu haqda mamlakat sog'liqni saqlash vaziri Greg Xant ma'lum qildi. Bo'lim boshlig'ining ta'kidlashicha, 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar sakkiz hafta oralig'ida yuboriladigan preparatning ikki dozasi bilan emlanadi. Pediatrik doza 12 yosh va undan katta insonlar uchun bo'lgan dozaning uchdan bir qismini tashkil qiladi [11].



Vazir, shuningdek, bugungi kunga qadar Avstraliyada qariyb 19 million kattalar (92 foizdan ortig'i) koronavirusga qarshi to'liq emlanganini va ularning 3 milliondan ortig'i vaksinaning kuchaytiruvchi dozasi olganini ma'lum qildi. "12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 910 mingdan ortiq aholi (74%) to'liq emlandi, endi 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar ham COVID-19 vaksinasidan foydalanishlari mumkin", dedi Xant.

Bugungi kunga kelib, Pfizer BioNTech - Avstraliyada bolalarni emlash uchun tasdiqlangan yagona vakcina. Shuningdek, milliy farmatsevtika regulyatori Amerikaning Moderna kompaniyasining 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun koronavirusga qarshi vaksinasini qo'llashni taklif qilgan arizasini ko'rib chiqmoqda.



Xantning ta'kidlashicha, mamlakat hukumati "bu dori vositasini yetkazib berish bo'yicha bir qator shartnomalar tuzgan, preparat regulyator tomonidan tasdiqlanganidan so'ng mamlakatda foydalanilmoqda" [12].



COVID
19
Coronavirus
Vaccine

Manbalar

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (10.01.2022)
2. ИТМ директори Шахло Турдикулова: “ZF-UZ-VAC2001 вакцинасининг кучайтирилган дозаси “омикрон”дан 100% ҳимоя қилади” // <https://t.me/vaksinauzb> (10.01.2022)
3. Директор ЦПТ Шахло Турдикулова: "Бустерная доза ZF-UZ-VAC2001 на 100% защищает от "омикрона" // <https://t.me/mininnovation> (10.01.2022)
4. ССВ: Юртимизда Omicron штамми аниқланди, эҳтиёт чоралари кучайтирилади // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi/7672> (10.01.2022)
5. «Омикрон» добрался до Узбекистана. Республиканская Спецкомиссия объявила о новых решениях // <https://nova24.uz/uzbekistan/Omicron-dobralnya-do-uzbekistana/> (10.01.2022)
6. ССВ: Коронавирусга қарши вакцинанинг 2022 йилги илк ярим миллион дозалик партияси юртимизга олиб келинди // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi/7677> (10.01.2022)
7. В Узбекистан прибыла крупная партия вакцины Moderna — фото // <https://uznews.uz/posts/v-uzbekistan-pribyla-krupnaya-partiya-vakciny-moderna-foto> (10.01.2022)
8. Кунлик касалланишлар сони яна ортди: кеча юртимизда қарийб 390 нафар кишида коронавирус инфекцияси аниқланди // <https://t.me/ssvuz> (10.01.2022)
9. За прошедшие сутки в Узбекистане выявили почти 400 новых случаев заражения COVID-19 // <https://uznews.uz/posts/za-prosedsie-sutki-v-uzbekistane-vyyavili-pocti-400-novyx-slucaev-zarazeniya-covid-19> (10.01.2022)
10. Australia’s kids roll up their sleeves in the fight against COVID-19 // <https://www.health.gov.au/ministers/the-hon-greg-hunt-mp/media/australias-kids-roll-up-their-sleeves-in-the-fight-against-covid-19> (10.01.2022)
11. Australia vaccinating children against COVID-19 from early next year // <https://www.health.gov.au/news/australia-vaccinating-children-against-covid-19-from-early-next-year> (10.01.2022)
12. Австралия начала прививать детей от 5 до 11 лет против COVID-19 вакциной Pfizer // <https://tass.ru/obschestvo/13382795> (10.01.2022)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022